

**AMUDARYO QUYI OQIMI CHAP
QIRG‘OIG‘IDA YASHOVCHI O‘ZBEKLARNING
TO‘Y OLDI BERILADIGAN YORDAM
AN’ANALARI**

*Muratbaeva Sarbinaz Rustemovna, O‘zbekiston Respublikasi
Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston gumanitar fanlar ilmiy-
tadqiqot instituti mustaqil tadqiqotchisi*

**THE TRADITIONS BEFORE THE WEDDING OF
THE UZBEKS LIVING ON THE LEFT BANK OF
THE LOWER AMUDARYA**

*Muratbaeva Sarbinaz Rustemovna, Karakalpak Research Institute
of Humanities of the Academy of Sciences of the Republic of
Uzbekistan, independent researcher*

**ТРАДИЦИИ ПРЕДСВАДЕБНОЙ ПОМОЩИ
УЗБЕКОВ, ЖИВУЩИХ НА ЛЕВОМ БЕРЕГУ
НИЖНЕГО ТЕЧЕНИЯ АМУДАРЬИ**

*Муратбаева Сарбиназ Рустемовна, независимый
исследователь Каракалпакского научно-исследовательского
института гуманитарных наук АНРУз*

Annotatsiya: Maqolada Amudaryoning quyi oqimi chap qirg‘og‘ida yashovchi, asosan, hududning Qo‘ng‘iroq, Sho‘manoy tumanlarida istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning ursf-odatlari, an’analari tahlil qilingan. Ayniqsa, bu hududda yashovchi o‘zbeklarning jabiw, ko‘rpa ilma an’anasi singari to‘y oldi yordam turlari o‘rganildi.

Kalit so‘zlar: o‘zbeklar, an’ana, to‘y oldi yordami, jabiw, ko‘rpa ilma, ursf-odatlar.

Annotation: The article analyzes the customs and traditions of Uzbeks living on the left bank of the lower Amu Darya, mainly in the Kungrad and Sho‘manoy districts of the region. In particular, the types of pre-wedding care, such as the tradition of frogs, blankets, and ilmas of the Uzbeks living in this region, were studied.

Keywords: Uzbeks, tradition, pre-wedding assistance, jabiw, kurpa ilma, traditions.

Аннотация: В статье анализируются обычаи и традиции узбеков, проживающих на левом берегу низовьев Амударьи, в основном в Кунградском и Шуманайском районах. В частности, были изучены такие виды предсвадебной помощи, как традиция «жабу», «курпа ilma» узбеков, проживающих в этом регионе.

Ключевые слова: узбеки, традиция, предсвадебная помощь, жабу, курпа ilma, обычай и обряды.

KIRISH. Etnografik tadqiqotlar shuni ko‘rsatadi, Amudaryoning quyi oqimida istiqomat qiluvchi o‘zbeklar hozirgi zamonda nuqtayi nazaridan yangidan o‘rganilishi kerak bo‘lgan masalalar qatoriga kiradi. Ularning madaniy hayoti, diniy e’tiqodlari va ijtimoiy amaliyotlari haqida mavjud ma’lumotlar ozchilikni tashkil etadi. Shu bois ushbu

hududda yashovchi o‘zbeklarning, xususan ularning an’anaviy dunyoqarashi, oilaviy an’analari va madaniy amaliyotlarini zamonaqiy antropologik va etnografik tadqiqotlar nuqtayi nazaridan churorroq o‘rganish katta ahamiyatga ega.

Amudaryoning quyi oqimi chap qirg‘og‘ida yashovchi o‘zbeklarning, ya’ni Qo‘ng‘iroq tumani

<https://orcid.org/0009-0007-9410-7413>
e-mail:
sarbinazmuratbaeva@gmail.com



o‘zbeklarining qarindosh-urug‘chilik munosabatlarining jadval va ma’lumotnomalaridan iborat oilaviy tur mushga oid materiallar 1946-yilda boshlangan Shimoliy o‘zbek etnografik otryadi tomonidan to‘plandi. Bu dala tadqiqot ishlari S.P.Tolstov rahbarligidagi Xorazm arxeologik etnografik ekspeditsiyasi tarkibidagi Shimoliy o‘zbek etnografik otryadi tomonidan o‘tkazilgan[2:319-321].

ADABIYOTLAR TAHЛИLI VA METOD. Mazkur otryad tomonidan 1946-yilda Yangi Urganch, Gurlan, Mang‘it, Qipchoq, Xo‘jayli, 1947-yilda Qo‘ng‘irot tumanlarida, 1948-yil Qo‘ng‘irot va Qipchoq tumanlarida marshrutli razvedka ishlari boshlandi. O‘zbek xalqining bir qismi bo‘lgan Amudaryoning quyi oqimidagi o‘zbeklar uning etnografik jihatdan eng kam o‘rganilgan guruhlari hisoblanadi [2:319].

Shuningdek, Qoraqalpog‘iston mintaqasida istiqomat qiladigan o‘zbeklarning oilaviy marosimlari borasida keng miqyosda tadqiqot ishlarini olib borgan rus olimasi K.L.Zadixina mazkur otryadga boschilik qiladi. Kelin va yosh qizlarning kiyimlari va ro‘mollarining ranglari va yoshiga qarab kiyimlarning o‘zgarishi, nikoh yoshidagi qizlarning soch turmamlari semantikasi, xina qo‘yish odatlari, shuning bilan birga bolalik davriga oid «aydar» (kokil soch) qo‘yish (3-5 yosh), sunnat qilish (5-12 yosh) va ularning bir davrdan ikkinchi davrga o‘tishi bilan bog‘liq odat ekanligini qayd etgan[3]. Keyingi davr tadqiqotchilaridan M.I.Xodjanov[4] Qoraqalpog‘istonda istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning oilaviy marosimlarini tadqiq qilsalar, G.M.Xojaniyazova[5] Qo‘ng‘irot, Sho‘manoy tumanlarida istiqomat qiluvchi o‘zbeklarning hayotida yordam an‘analarini qoraqalpoqlarda o‘zaro yordam an‘analar bilan qiyosiy o‘rganishga harakat qilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR. «Jabiw» ma’nosiga ko‘ra, kelin to‘y beruvchi oilaga qarindosh-urug‘lar, qo‘ni-qo‘shnilari, yaqin do‘sstar tomonidan beriladigan yordam bo‘lib, bo‘lajak to‘yning xarajatlarini birligida «jabiw» maqsadida amalga oshiriladi va ushbu «jabiw» degan nom bilan saqlanib qolgan. «Jabiw» yig‘ib to‘y berish, bir asrga yaqin vaqt davomida mahalliy aholi hayotida saqlanib kelayotgan o‘zaro yordamning bir

shakli hisoblanadi. Bu an‘ana Qo‘ng‘irot va Sho‘manoy tumanlarida yashovchi o‘zbeklarda paydo bo‘lgan [5:66].

Taxminan XX asrning 30-40-yillarida «jabiw»ga eng avval qarindosh-urug‘lar «don» berishgan. Ya’ni bug‘doy, jo‘xorining donini to‘y beruvchi uyga yordam evaziga bera boshlagan[5:67].

«Jabiw»ning asosiy ishtirokchilari ayollar bo‘lib, ishtirokchilar tomonidan to‘ydan oldingi an‘analarni amalga oshirish uchun beriladigan o‘zaro yordam hisoblanadi. Unda hech qanday to‘y masalalari muhokama qilinmaydi. «Jabiw»da ishtirok etuvchilar tomonidan olib kelingan mato va pullar to‘y beruvchi xonadonda o‘rtada qo‘yilgan maxsus daftarda qayd etiladi. Bu yerda asosan, yordam olib kelingan mato va pullar bo‘ladi. Chunki, uylanayotgan yigit tomonidan qizga beriladigan *qalin pul** xarajati, urf-odatlarni amalga oshirishda foydalilaniladigan mato, ro‘mol masalasi yordam hisobidan yig‘iladi.

To‘y oldi beriladigan o‘zaro yordamning bir ko‘rinishi jabiw haqida informatorning ma’lumotiga ko‘ra, «*kelin tushirib, to‘y berganda qishlog‘imizda «jabiw»ga aytish an‘anasi keng saqlangan. Ushbu an‘anaga qarindosh-urug‘lar, do‘s-t-birodarlar va yaqin qo‘shnilarga xabar qilinadi va bevosita ushbu an‘anening ishtirokchilari ayollarimizdir.* «Jabiw» yig‘ishda har bir xo‘jalik o‘z ahvoldidan kelib chiqib, kimdir 4 ta kostyum-shim, 2 ta yaxshi ko‘ylaklik mato, qo‘shimcha pul olib kelsa, kimdir butunlay yordamini moliyalashtirib beradi. Bu esa «*katta to‘y»ni boshlash arafasida turgan uyning muhtojini bitirganligini va o‘zining besh o‘g‘lini uylantirganda «jabiw» yig‘ganini aytib o‘tdi»* [ADY:8].

«Jabiw» an‘anasi bo‘yicha informator: «*Jabiw»ga aytish «katta to‘y» beruvchi uyga juda ko‘p yordam hisoblanadi. Chunki «jabiw»da tushgan mablag‘ga ba‘zilar «quda tushadi», tushgan mato-ro‘mollarga «eshik ochdi», «dasturxon ochdi» kabi «to‘y oldi» an‘analarini bajarishda qulaylik tug‘dirishini ko‘rsatadi»* [ADY:9].

«Jabiw»da ishtirok etuvchilar asosan to‘yi bo‘layotgan uyning oldindan o‘rtadagi

* Qalin puli - uylanayotgan yigit tomonidan qiz tomon otonasining roziligi uchun beriladigan pul.

munosabatiga qarab boradi. Agar uy belgilangan to'y va marosimlarda yaxshi ishtirok etadigan, borish-kelishi yaxshi bo'lsa, uy «jabiw»ga taklif etiladigan mehmonlari ham ko'p bo'lib ishtirok etadi. Ularga «jabiw» beruvchi uy tomonidan yoyilgan mehmono'stlik dasturxoniga ketgan xarajatdan juda ko'p miqdorda pul, mato, ro'mollar yordam evaziga olib kelinadi. Shuning uchun «jabiw»ga ko'p odamning kelishi to'y beruvchi xo'jalikka katta foyda keltiradi.

Bundan tashqari, «qiz uzatish» to'ylarida ya'ni «qiz to'yida qiz tomon qizining turmushga chiqqan joyiga sep, ya'ni qizning turmushga chiqqan joyida ishlatalidigan buyumlarning bir qismini beradi. Qizning sepiga qo'shib ko'rpa, ko'rpacha va yostiqlar ham beriladi. Qo'ng'irot va Sho'manoy tumanlarida istiqomat qiluvchi o'zbeklarning an'analarida qizning uyiga 12, 16 metrlik ko'rpachalik maxsus mato yoki ko'rpacha uchun paxta (*50, 60 kg chamasida*) olib borishi kuzatiladi. Informatorning takidlashicha: «*Qiz sepiga ko'rpacha-ko'rpa qo'shganimizda ikki tomon, ya'ni yigit bilan qiz tomonning kattalari o'zaro kelishishadi. Ular qiz tomonga ma'qul bo'lgan mato yoki paxtani sep uchun yordam tariqasida yetkazadilar[ADY:10]*» deb bu an'analing ma'nosini keltirsalar, «*kórpe ilme*» to'yonasi degan nom bilan o'zaro yordam berish an'anasi tariqasida qo'ni-qo'shnilar, qarindoshlarning hamrohligida bu ko'rpa va ko'rpachalarni yordam tariqasida birlgilikda tikish amalga oshiriladi.

Mana shu «*kórpa ilme*» to'yonasiga ko'ra Qo'ng'irot va Sho'manoy tumanlarida istiqomat qiluvchi o'zbeklarda quda tomonidan (yigit tomonidan) 4-5 ayol uzatiluvchi qizning uyiga «hormasin»ga keladi. Qizning sepi bo'lgan ko'rpa, ko'rpacha tikayotgan qishloq ayollariga yoki qarindoshlariga *dasturxon* olib kelinadi. Dasturxonda ko'pincha bir tovuqni so'yib, undan palov pishirib, yoniga shirinliklar, ichimliklarni qo'shib olib keladi. Asosiy mas'ul, tikuvchi etib belgilangan ayolga ignang o'tkir bo'lsin, qo'ling og'rimasin degan maqsadda to'yna beriladi. Bundagi asosiy mukofot, ko'ylaklik yaxshi ikkita mato hisoblanadi (to'y va marosimlarda sovg'ani juftlab olib yurish irim qilinadi). Shunga o'xshash udum Xorazm o'zbeklari hayotida ham uchraydi. Ya'ni ularda ham «*ko'rpa bichar*» tadbirini o'tkaziladi. To'ydan oldin kuyov va qizning onasi

farzandlari uchun bolaligidan niyatlab olib qo'ygan matolardan yangi oila uchun ko'rpa-to'shaklar, ko'rpachalar tikkan[1:39-40].

Tumanlar kesimida ko'rsatilgan ushbu ko'rpacha tikishga aytildigan o'zaro yordam masalasi Qo'ng'irot, Sho'manoy tumanlaridagi o'zbeklar hayotida «*kórpa ilme*» to'yonasi mavjudligi bilan ajralib turadi va bu yordam turi bevosita xotin-qizlar tomonidan bajariladi. Ba'zi joylarda esa, bu qoidaga e'tibor bermay, «*pullik xizmat*»dan foydalangan holda ko'rpa va ko'rpachalarni tikib sotuvchi yoki buyurtma asosida tikuvchilarga topshiriq berib, kelishilgan xarajatga tikish holatlari ham uchraydi [6:126-128].

Bu yordam turidan boshqa «*qiz uzatish*» to'yida qizning sepini, kerakli anjomlarini qarindosh-urug'lari, yaqin do'stlari ko'magida tayinlash bugungi kunda urfga aylangan. Qizning sepiga zamonaviy jihozlar, televizor, kir mashinasi, chang yutgich (*pilesos*), duxovka, mikroto'lqinli pech, gilam kabi qimmatbaho buyumlarni qarindosh-urug'lar yordami evaziga yoki moliyaviy, yoki do'kondan sotib olib kelib, yordam beradi. Shu o'rinda informatorning ma'lumot berishicha: «*Yaqinda qiz uzatib to'y berdim. Ukalarmi birlashib, moliyaviy yordam berishdi. Qaynisingillarim esa qizimning sepiga katta-katta anjomlar olib berib, o'z yordamlarini ko'rsatishdi. Do'stlarim bo'lsa, sandiqqa (arjaga) solinadigan kosa-choynak, ozroq yirik kiyimlariga yordam berdi*»[ADY:7], deb ko'rsatadi.

XULOSA. Yuqorida sanab o'tilganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, Amudaryoning quyi oqimi chap qirg'og'ida, ya'ni Qo'ng'irot va Sho'manoy tumanlarida yashovchi o'zbeklarning oilaviy marosimlari, ularning an'analarini tadqiq qilish va Qoraqalpog'iston hududida yashovchi bu etnik guruhlarning o'ziga xos urf-odatlarini o'rganish dolzarb mavzulardan biri hisoblanadi. Chunki, ularning turmish tarzi, ijtimoiy instituti, etnomadaniy xususiyatlari har qanday tadqiqotchini o'ziga jalb qiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Маткаримова Н.М. Хоразм воҳаси ўзбекларининг никоҳ тўйи маросимлари (XX аср ва мустақиллик даври) // тарих фанидан ф.ф.д. (PhD) илмий даражасини

- олиш учун ёзилган диссертация. – Нукус, 2020. – Б. 39–40.
2. Задыхина К.А. Узбеки делты Аму-Дары // Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции. Т.1. – М., 1952. – С. 319–321.
 3. Задыхина К.Л. Пережитки возрастных классов у народов Средней Азии // ТИЭ. Научный сборник. – 1951. – Т.14. – С. 166–167, 168–169, 170–171, 173.
 4. Ходжанов М.И. Қорақалпоғистонда яшовчи ўзбекларнинг никоҳ тўйидан олдин бажариладиган урф-одатлар // Академик С.Камалов туўылғанының 100 жыллығына бағышланган. Орайлық Азияны изертлеўлер контекстинде Қарақалпақстан тарийхи. Халықаралық илимий-теориялық конференция материаллары. – Нокис, 2024. – Б. 204–207.
 5. Хожаниязова Г.М. Қарақалпақларда немеўрин, жабыў, орамал салыў дәстүрлери // Ўзбекистон Республикаси Фанлар
 - Академияси Қорақалпоғистон бўлимининг Ахборотномаси. – Нукус: Илим, 2023. – №4 (273). – Б. 66–70.
 6. Хожаниязова Г.М. Қарақалпакларда өзара жэрдем дәстүринде көрпеше тигиў қәдеси // Ғәрәзизлик дәўири гуманитар илимлериң актуал мәселелери: Республикалық илимий-эмелий конференция материаллары. – Нөкис: Илим, 2023. – Б. 126–128.
 7. Avtorning dala yozuvlari (ADY) – №8 2025. Sho‘manoy tumani, informator Avezbayeva Nargiza.
 8. Avtorning dala yozuvlari (ADY) - №1 2025. Sho‘manoy tumani, informator Mamiyeva Feruza.
 9. Avtorning dala yozuvlari (ADY) - №4 2025. Qo‘ng‘irot tumani, informator Mamutova Dilorom.
 10. Avtorning dala yozuvlari (ADY) - №3 2025. Sho‘manoy tumani, informator Matrzayeva Jadira.

